

METAFORA BIRLIGINING NUTQDAGI AHAMIYATINING TARIXIY SHAKLLANISH NAZARIYALARI

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi

Qo‘qon Universiteti ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

rustamovadilfuza7755@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metafora birligining nutqimizdagi o‘rni va ahamiyati shakllanish nazariyalari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, metaforaning nutqimizda boyitib, rivojlantirib berishdagi xizmatlari ochib berilgan. Metafora biz yashab turgan olamni, borliqdagi mavjud yaratishlarni o‘xshashliklar, ular o‘rtasidagi assotsiativ bog‘lanish orqali to‘g‘ri anglay olishga yordam beruvchi, nutqimizning bo‘yoqdorligi va badiiy jozibasini oshirib ifodalashga yo‘naltirilgan til birligi hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Metafora, metofofizatsiya, nutq, estetik-puristik yondashuv, notiq.*

Inson nutqi uning harakter hususiyatini, ilmiy dunyoqarashini, kasbiy kompetensiyalarini namoyon qilishning eng asosiy samarali vositasi hisoblanadi. Chiroyli so‘zlay olish qobiliyatiga, ravon nutqqa ega bo‘lgan insonlar o‘z fikrini, bilimni aniq dalillar orqali ixcham qilib yetkazib bera olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Notiqlar yuksak darajali kasb egasi bo‘lib kelgan, eng buyuk notiqlar kamol topgan antik davrlarda, qadimgi Yunonistonda nutqimizni go‘zallashtirib boyitib beruvchi omil sifatida metaforani yuqori baholashgan. Aynan o‘sha davrlardan beri metafora nutq bezagi, jozibador nutq vositasi sifatida ilmiy-amaliy iste‘molga kirib kelgan.

Bugungi kunda ham ravon nutq egasi bo‘lish zamon talabi hisoblanadi. O‘quvchi yoshlarni nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasida ham muhim vazifalar sifatida “ mustaqil fikrlaydigan qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”⁹ muhim vazifalardan etib belgilandi. Shu va shu kabi qonun, qarorlar doirasida o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, noodatiy tarzda o‘z fikrlarini yetkazib berish kompetensiyalarini takomillashtirish kabi funksiyalar maktab ta‘limiga joriy etila boshlandi.

Ushbu jarayonni kamol toptirishda o‘quvchilarga lingvistik ta‘lim berishni yanada mukammallashtirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda, nutqimizni boyitib

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

beruvchi soʻzlarning maʼno koʻchishi natijasida yangi soʻzlarni hosil qilish jarayonini toʻgʻri va toʻliq holda oʻquvchilarga oʻqitish lozim. Oʻzbek tilidagi soʻzlarning katta qismi koʻp maʼnoli hisoblanadi va bunda maʼno koʻchishining metafora usuli eng unumdirdir.

Metafora biz yashab turgan olamni, borliqdagi mavjud yaratishlarni oʻxshashliklar, ular oʻrtasidagi assotsiativ bogʻlanish orqali toʻgʻri angʻlay olishga yordam beruvchi, nutqimizning boʻyoqdorligi va badiiy jozibasini oshirib ifodalashga yoʻnaltirilgan til birligi hisoblanadi. “Metaforizatsiya esa tilda yangi ifoda vositasi qidirmay, hosil qilmay, tejamkorlik qonuniyati, borliqdagi narsa va hodisalarning oʻxshashligi, muvofiqligi, mavjud soʻz hamda iboralarga ularning ontologik imkoniyatlari asosida yangi koʻp qirrali vazifalar va maʼsuliyyat yuklash demakdir.”¹⁰

Metafora insonlar nutqida antik davrlardan beri mavjud boʻlib, uning yaratuvchanlik, qayta nomlash orqali tilda yangi soʻz va jumlar hosil qila olish imkoniyati bilan zamonaviy olamdagi deyarli barcha sohalarga kirib bora oldi. Inson nutqi, uning ogʻzaki soʻzlay olish qobiliyati zamonaviy taʼlim sohalarini toʻgʻri tushuntirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayni shu jihatidan olib qaralganda metafora tilimizni soʻzlarni oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoda yangi bir predmet yoki hodisani nomlash uchun xizmat qilishi bilan boyitib berishi tufayli nutq taʼsirchanligini oshirib bera oladi hamda nutqda asosiy oʻrin egallaydi. Til sistemamizda mavjud metaforik birliklardan nutqimizda oʻrinli foydalanish orqali bildirmoqchi boʻlgan fikrimizni aniq dalillar va chiroyli misollar bilan yetkazib bera olamiz. Bundan kelib chiqadiki metafora nutqimizning bezagi hisoblanadi, Tilshunoslikda metafora ritorika sanʼati orqali kirib kelgan boʻlib, antik sinkretizm davridagi “estetik-puristik” yondashuv asosida unga estetika va tasviriy (jozibador) nutq vositasi sifatida qaralgan¹¹.

Fanda metaforani chuqur oʻrgangan olimlardan dastlab, Aristotelning nomi mashhurdir. Aristotel asarlarida metaforaga lisoniy hodisa sifatida taʼrif berilmaydi, lekin shunga qaramay aynan uning mulohazalari tufayli metafora ilmiy isteʼmolga kirgan. Metafora tabiatini tekshirgan Aristotel uni: “soʻz maʼnosining jinsdan turga, turdan jinsga yoxud turdan turga yoki muqobillik asosida koʻchirilishidir”, - deb taʼriflaydi¹². Mazkur toʻrt turdagi metaforalar orasida olim muqobillik asosida yuzaga kelgan metaforalarni eʼtiborli topadi. Muqobillik – proportsiyaning oʻzi: bunda ikkinchi soʻz birinchisiga, xuddi shunday, uchinchi va toʻrtinchisiga ham birday taalluqli boʻlaveradi. Xususan, u “Umrning keksalik davri kunduzning shom pallasiga

10

Лингвистический энциклопедический словарь гл. ред. В.Н.Ярцева.- 2-э изд, доп.- М.:Большая рос.энцикл, 2002,-709с

¹¹ Лагута О.Н Метофорология: теорические аспекты/ Новосибир. гос. ун-т. -Новосибирск, 2003. Ч.1.

¹² Aristotel. Poetika. – L.:1927.B.-39.

tengdir” jumlasidagi umr soʻzini uchinchi soʻz (bunda keksalik davri soʻz birikmasi boʻlib kelgan) – kunduz bilan almashtirish mumkin (ushbu holatda: kunduzning keksalik davri (shom pallasi) hamda umrning shom pallasi (keksalik) singari metaforalar yasaladi), deydi.¹³

Ritorika metaforani alohida mahorat va ehtiyotkorlik talab etuvchi soʻz oʻyini, yaʼni muayyan shakl emas, balki, nutqning tasviriy vositasi, bezagi deb qabul qiladi. Binobarin, antik davr odamida obyekt va tasavvur qilinayotgan subyekt oʻrtasidagi munosabat haqida goʻyo ikkita fizik predmetning oʻzaro taʼsirlanishiga monand tasavvur mavjud boʻlgan. Bejizga Aflotunning “Tyetete” nomli asaridagi ekmageyn [ekmageion] yaʼni mum surtilgan taxtachga yuzasida xattotning stil (uchi oʻtkir tayoqcha¹⁴) yordamida harflarni aks ettirish haqidagi fikrida metaforaga nisbat berilmaydi.

Asrlar oʻtib, metafora muammosi ritorika koʻlamidan tashqariga chiqib, tilshunoslikka oʻtdi. Shu zaylda metaforaning qiyosiy konsepsiyasi yuzaga keldi. Unga koʻra, Metafora – odatiy nomlashning tasviriy idrok etilishi. Bunda metafora yashirin qiyos sifatida tekshiriladi, qiyosiy nazariya esa metaforik bayonni ikki taqqoslanayotgan predmetga bogʻliq, deb xulosa qilgan.

Mumtoz ritorika metaforani meyordan chetlatish- predmet nomining boshqa bir predmetga koʻchishi sifatida izohlaydi. Ushbu koʻchimning vazifasi oʻrnida leksik lakuna¹⁵ (nominative funksiya) yohud nutqni boyitish va ritorikaning bosh maqsadi boʻlmish “ishontirish” ga xizmat qilishi tushunilgan. Shuningdek, Aristotel oʻz asarlarida metaforaga nisbatan ixcham oʻxshatish, soddalashtirilgan oʻxshatish deb qaraydi hamda bu koʻchimlarni ishlatishda mahoratli boʻlish lozim, yaʼni “yaxshi metaforalarni yasash- (predmetlararo) oʻxshashliklarni ilgʻashdir”, - deya taʼkidlaydi¹⁶. Bu fikrga qarshi tilshunos A. Richards, “har bir lison egasida metaforalarni qoʻllashga doir tajriba mavjud boʻladi; Aristotelning bu mahorat hammada ham mavjud boʻlavermaydi degan fikri notoʻgʻri. Inson nutqiy qobiliyatni oʻzga lison egalarining namunasi ostida egallab boradi. Tabiiyki, bunda u bevosita koʻchimlarni qoʻllash tajribasini ham oʻzlashtirib boradi”, - deb eʼtiroz bildirarkan,

¹³ Протопопова И. Философская аллегория, поэтическая метафора, мантика: сходства и различия. Доклад, прочитанный в ИВГИ РГГУ. Март. 2001

¹⁴ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. – B.6.

¹⁵ Lakuna (fran.lacune –boʻshliq chuqurlik J.P.Vine va J.Derbelen termini) muloqot jarayonida muayyan maʼdaniyatning boshqa bir maʼdaniyat vakili tomonidantoʻliq yoki qisman anglashilmaydigan oʻziga hos milliy unsur. Qarang: Xudoyberganova D.Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati- Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.

¹⁶ Aristotel. Soch. V 4-x tt., IV. M., 1983

metaforaga eng ulugʻvor hayotni idora etish (a command of life) sanʼati deya baho beradi.¹⁷

Aynan A.Richardsning fikri biz olib borayotgan tadqiqot doirasida toʻgʻri hisoblanadi. Chunki, insonlar nutqi u yashab turgan jamiyatning oʻz tili asosida yaratiladi. F.deSossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli boʻlishi uchun zarur boʻlsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. Tilning pragmatik namoyon boʻlishi nutqda oʻz aksini topadi. Inson nutqi oʻz ona tilida mavjud boʻlgan soʻzlar va til birliklari asosida shakllanadi. Yaʼni tilning nazariy asoslari yuzasidan chuqur bilimga ega boʻlmagan insonlar aynan, kichik yoshdagi oʻquvchilar ham tilda mavjud boʻlgan grammatik til birliklaridan toʻgʻri va oʻrinli foydalana oladi. Chunki ularning nutqi ota-onasi, oilasi, jamiyat aʼzolarining lisonida mavjud soʻz boyligi orqali shakllanadi. Tilda hamma uchun umumiy mavjud boʻlgan metaforalar ham har bir inson nutqida xususiylashib namoyon boʻladi va nutqni boyitib, fikrlarni goʻzal ifodalab beradi. Yuqoridagi keltirilgan antik davrlardan beri metaforaga berilayotgan taʼriflarda ham aynan mana shu fikr oʻz tasdigʻini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Лингвистический энциклопедический словарь гл. ред. В.Н.Ярцева.- 2-э изд, доп.-М.:Большая рос.энцикл, 2002,-709с
2. Лагута О.Н Метофорология: теорические аспекты/ Новосиб. гос. ун-т. - Новосибирск, 2003. Ч.1.
3. Aristotel. Poetika. – L.:1927.B.-39.
4. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. – B.6.
5. Lakuna (fran.lacune –boʻshliq chuqurlik J.P.Vine va J.Derbelen termini) muloqot jarayonida muayyan maʼdaniyatning boshqa bir maʼdaniyat vakili tomonidantoʻliq yoki qisman anglashilmaydigan oʻziga hos milliy unsur. Qarang: Xudoyberganova D.Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati-Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
6. Aristotel. Soch. V 4-x tt., IV. M., 1983
7. Ayvor A. Richards .Filosofiya ritoriki. Bunda maqola quyidagi toʻplam orasida: Kassirer E., R.Yakobson, A.Richards, M.Blek, J.Serl, A.Vebjitska, A.Ortoni, J.Lakoff, N.Gudmen, va boshq. Teoriya metafori. –M.: progress, 1990. – 58-b. URL:: <http://fileshare3200depositfiles.com/auth-13415932567aa0fa1b3be3cc9a4042fa-213.206.39.161-2033652370-119224315-guest/FS320-2/153998.doc?>

¹⁷ Ayvor A. Richards .Filosofiya ritoriki. Bunda maqola quyidagi toʻplam orasida: Kassirer E., R.Yakobson, A.Richards, M.Blek, J.Serl, A.Vebjitska, A.Ortoni, J.Lakoff, N.Gudmen, va boshq. Teoriya metafori. –M.: progress,